



## RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA XITOIY XALQ RESPUBLIKASINING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

**Nusratulloyeva Dilnoza Shavkatovna**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik: Xitoy yo‘nalishi  
talabasi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Xitoy Xalq Respublikasida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda uning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamlashtirish jarayonining iqtisodiy o‘shish, sanoat modernizatsiyasi, ijtimoiy farovonlik va barqaror rivojlanishga ta’siri baholanadi. Maqolada xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistik ma’lumotlari asosida Xitoyning raqamli infratuzilmasi, elektron tijorat, raqamli to‘lov tizimlari, elektron hukumat va raqamli sog‘liqni saqlash sohalaridagi yutuqlari o‘rganildi. Shuningdek, raqamli transformatsiyaning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlanib, Xitoy tajribasining rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot natijalari Xitoyda raqamli iqtisodiyot davlat siyosati, bozor mexanizmlari va innovatsion salohiyat uyg‘unligi asosida samarali rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar** Raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, Xitoy Xalq Respublikasi, elektron tijorat, raqamli infratuzilma, sun‘iy intellekt, barqaror rivojlanish.

## THE ROLE OF THE PEOPLE’S REPUBLIC OF CHINA IN THE GLOBAL ECONOMY UNDER DIGITALIZATION

**Nusratulloyeva Dilnoza Shavkatovna**

Tashkent State University of Oriental Studies

Student of Foreign Countries’ Economy and Area Studies: China Program

### **Abstract**

This article analyzes the formation and development stages of the digital economy in the People’s Republic of China and its role in the global economy. The study evaluates the





impact of digitalization on economic growth, industrial modernization, social welfare, and sustainable development. Based on official statistical data from international organizations, the research examines China's achievements in digital infrastructure, e-commerce, digital payment systems, e-government, and digital healthcare. In addition, the relationship between digital transformation and the Sustainable Development Goals is identified, and the scientific and practical significance of China's experience for developing countries is substantiated. The findings indicate that China's digital economy is developing effectively through the integration of state policies, market mechanisms, and innovative potential.

**Keywords** Digital economy, digitalization, People's Republic of China, e-commerce, digital infrastructure, artificial intelligence, sustainable development.

### **Kirish**

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jahon iqtisodiyoti va davlat boshqaruvi tizimlarida tub tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, innovatsion salohiyatni kuchaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda institutlar faoliyatini modernizatsiya qilishning muhim omiliga aylanmoqda. Ushbu jarayon Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan SDG 8 (munosib mehnat va iqtisodiy o'sish), SDG 9 (sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma), SDG 12 (barqaror iste'mol va ishlab chiqarish) hamda SDG 16 (samarali institutlar) bilan uzviy bog'liqdir.

Xitoy Xalq Respublikasi so'nggi o'n yil davomida raqamli iqtisodiyotni izchil rivojlantirib, uni milliy taraqqiyotning strategik tayanchiga aylantirishga erishdi. Raqamli infratuzilmaning kengayishi, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (big data), bulutli texnologiyalar va platforma iqtisodiyotining jadal rivoji Xitoyning jahon xo'jaligi tizimidagi mavqecini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan raqamli transformatsiya siyosati iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Raqamli transformatsiyaning muhim ijtimoiy yo'nalishlaridan biri sog'liqni saqlash tizimining raqamlashtirilishidir. Bugungi kunda raqamli tibbiyot nafaqat texnologik yangilanish, balki Barqaror rivojlanishning 3-maqсадiga erishishning muhim asosi sifatida namoyon bo'lmoqda. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektga asoslangan diagnostika tizimlari, teletibbiyot platformalari hamda "aqlli" shifoxonalarning joriy etilishi





tibbiy xizmatlar sifati va qamrovini sezilarli darajada yaxshilab, shahar va qishloq hududlari oʻrtasidagi tibbiy tafovutni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot va sogʻliqni saqlash tizimining integratsiyalashuvi “Internet+Healthcare” modelining shakllanishiga olib kelib, resurslardan samarali foydalanish, kasalliklarni erta aniqlash va inson kapitalini rivojlantirishga zamin yaratmoqda.

Hozirgi bosqichda internet, katta hajmdagi maʼlumotlar va sunʼiy intellekt kabi raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot va jamiyat bilan chuqur integratsiyalashuvi natijasida raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy oʻsishni barqarorlashtirish va tarkibiy oʻzgarishlarni jadallashtirishning muhim omiliga aylanmoqda. U jahon xoʻjaligi tuzilmasini modernizatsiya qilish, global qiymat zanjirlarini qayta shakllantirish hamda xalqaro raqobat muhitini oʻzgartirishda muhim rol oʻynamoqda.

Mazkur sharoitda raqamli iqtisodiyot sohasida global raqobatning kuchayishi mamlakatlarda ushbu yoʻnalishda strategik siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini jadallashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan, Xitoy Xalq Respublikasining raqamlashtirish sharoitida jahon iqtisodiyotidagi oʻrnini tahlil qilish, uning tajribasini baholash hamda rivojlanish istiqbollari aniqlash mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Soʻnggi yillarda Xitoy Xalq Respublikasida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish jarayoni koʻplab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan tizimli ravishda oʻrganilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyotning institutsional asoslari, iqtisodiy samaradorlikka taʼsiri, barqaror rivojlanishdagi oʻrni hamda tarmoqlararo integratsiyasi asosiy tadqiqot yoʻnalishlari sifatida shakllangan.

Jiang va Murmann Xitoy raqamli iqtisodiyotining shakllanishini institutsional va tarixiy yondashuv asosida tahlil qilib, uning rivojlanishida davlat siyosati, platforma kompaniyalari va infratuzilmaning oʻzaro uygʻunligi muhim rol oʻynaganini asoslab beradi [1]. Mualliflarning taʼkidlashicha, mobil texnologiyalar, elektron tijorat va raqamli toʻlov tizimlarining ommalashuvi Xitoy iqtisodiyotida yangi biznes modellarini shakllantirgan hamda iqtisodiy oʻsishni jadallashtirgan.

Zhang va hammualliflar raqamli iqtisodiyotning yuqori sifatli iqtisodiy rivojlanishga taʼsirini empirik jihatdan oʻrganib, raqamlashtirish texnologik innovatsiyalarni ragʻbatlantirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish unumdorligini





oshirish orqali iqtisodiy sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashini aniqlagan [2]. Tadqiqot natijalari raqamli infratuzilma va sanoat raqamlashtirish darajasi hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

García-Herrero va Xu Xitoy raqamli iqtisodiyotining hajmini baholash masalasiga metodologik yondashuv asosida e'tibor qaratib, turli statistik baholash usullari natijalarning keskin farqlanishiga olib kelishini ta'kidlaydi [3]. Mualliflar raqamli iqtisodiyot ko'lamini aniqlashda ICT sektori, platforma xizmatlari va raqamlashtirilgan tarmoqlarni yagona metodika asosida hisoblash zarurligini ko'rsatadi.

Wang va hammualliflar raqamli iqtisodiyotning energiya samaradorligi va "yashil rivojlanish"ga ta'sirini tahlil qilib, raqamlashtirish energiya iste'molini optimallashtirish, monitoring tizimlarini takomillashtirish hamda ekologik texnologiyalarni joriy etishni tezlashtirishini isbotlaydi [4]. Ushbu tadqiqot raqamli iqtisodiyotning ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini ochib beradi.

Shkvarya va Hailing Xitoy raqamli iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini o'rganib, platforma iqtisodiyoti, raqamli xizmatlar va elektron savdoning yetakchi o'rin egallayotganini qayd etadi [5]. Mualliflar, shuningdek, raqamli rivojlanishning hududlararo nomutanosibliigi muammosiga ham e'tibor qaratadi.

Song va hammualliflar COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga ta'sirini tahlil qilib, raqamli texnologiyalar iqtisodiy tiklanish jarayonida muhim katalizator vazifasini bajarganini aniqlaydi [6]. Tadqiqotda raqamli platformalar, masofaviy xizmatlar va elektron savdoning ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Ma va hammualliflar raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga ta'sirini kompleks empirik modellar asosida baholab, uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi [7]. Mualliflar raqamlashtirishning hududiy rivojlanish tafovutlarini kamaytirishdagi rolini ham ko'rsatib o'tadi.

Pan va hammualliflar raqamli iqtisodiyotning umumiy omillar samaradorligiga ta'sirini o'rganib, innovatsion faoliyat va bilimlar almashinuvi orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshirishini aniqlagan [8]. Ushbu natijalar raqamli iqtisodiyotning sanoat modernizatsiyasidagi rolini tasdiqlaydi.

Zhang, Sun va Wang qishloq xo'jaligi va qishloq hududlarida raqamli texnologiyalar asosida sanoat integratsiyasining rivojlanishini tahlil qilib, raqamli platformalar qishloq





xo'jaligi mahsulotlari bozoriga chiqishni kengaytirishini isbotlaydi [9]. Bu esa hududiy rivojlanishning muvozanatlashuviga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar Xitoy raqamli iqtisodiyotining rivojlanish yo'li infratuzilma, davlat siyosati, innovatsiyalar va platforma ekotizimlari uyg'unligiga asoslanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, hududlararo tafovutlar, ma'lumotlar xavfsizligi, monopoliyalashuv va tartibga solish muammolari yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur maqolada Xitoy Xalq Respublikasida raqamlashtirish jarayonining rivojlanish bosqichlari hamda uning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog'liqligi kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli va mantiqiy yondashuv asosida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlarini o'rganildi.

Maqolaning empirik va axborot bazasi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, UNCTAD (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi), OECD, Jahon Banki, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hamda Jahon savdo tashkiloti kabi xalqaro nufuzli institutlarning rasmiy statistik ma'lumotlari va tahliliy hisobotlaridan foydalanildi. Ushbu ma'lumotlar asosida Xitoyning raqamli iqtisodiyot sohasidagi rivojlanish tendensiyalari hamda ularning barqaror taraqqiyotga ta'siri baholandi.

Tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, umumlashtirish, tizimli tahlil hamda dinamik qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, xalqaro tajriba va mavjud ilmiy adabiyotlar asosida nazariy xulosalar ishlab chiqildi hamda amaliy takliflar shakllantirildi.

Mazkur metodologik yondashuv Xitoyda raqamli transformatsiya jarayonlarining barqaror rivojlanishga ta'sirini har tomonlama baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini asoslash imkonini berdi.

### **Tahlil va natijalar**

Raqamlashtirish jarayonida Xitoy Xalq Respublikasining jahon iqtisodiyotidagi o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakatda internet foydalanuvchilari soni 1,1 milliarddan oshib, internet qamrovi 78,6 foizni tashkil etdi. Onlayn to'lovlar va elektron tijorat foydalanuvchilari ulushining yuqoriligi natijasida onlayn chakana savdo hajmi 15,52 trillion yuanga (2,15 trillion AQSh dollari) yetdi va bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 7,2 foizga oshdi. Xitoy raqamli iqtisodiyotining yalpi ichki





mahsulotdagi ulushi taxminan 40 foizni tashkil etib, mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi strategik ahamiyatini namoyon etmoqda.

Xitoy raqamli iqtisodiyotining shakllanishi 1994-yilda mamlakatning global internet tarmog‘iga to‘liq ulanilishi bilan boshlandi. Shu davrdan boshlab Xitoy taqlidiy innovatsiyalardan mustaqil innovatsiya bosqichiga o‘tib, ayrim yo‘nalishlarda yetakchi mavqega ega bo‘la boshladi. 2000-yillarning boshlarida AQSh va Yevropada “dot-com” inqirozi yuz bergan bo‘lsa-da, Xitoyda Tencent, Alibaba va Baidu kabi yirik raqamli kompaniyalar shakllanib, milliy raqamli ekotizimning poydevorini yaratdi. Qisqa vaqt ichida mamlakat dunyodagi ikkinchi yirik raqamli iqtisodiyotga ega yetakchi davlatga aylandi.

Xitoy va Amerika Qo‘shma Shtatlarida asosiy raqamli platforma kompaniyalarining shakllanish davri 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Xitoy va AQShda internet-kompaniyalarning shakllanish davri**

<b>Soha</b>	<b>Xitoy korxonalari (tashkil etilishi/yil)</b>	<b>AQSH korxonalari (tashkil etilishi/yil)</b>
Tezkor xabarlar	Tencent OICQ (1999)	MSN (1995)
Qidiruv tizimi Baidu	Baidu (2000)	Google (1998)
Onlayn xaridlar (B2C)	JD (1998)	Amazon (1994)
Onlayn xaridlar (C2C)	Taobao (2003)	eBay (1995)
Onlayn to‘lov	Alipay (2004)	Paypal (1998)
Onlayn ijtimoiy tarmoqlar	Sina (1998)	Twitter (2006)
Umumiy foydalaniladigan transport	Didi Dache (2012)	Uber (2010) <sup>1</sup>

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Xitoy raqamli kompaniyalari AQShga nisbatan kechroq tashkil etilgan bo‘lsa-da, qisqa muddat ichida tez sur‘atlarda rivojlanib, milliy va

<sup>1</sup> Ouyang, R., Jing, W., Liu, Z., Tang, A. Development of China’s Digital Economy: Path, Advantages and Problems. Sustainability, 2024.





global bozorlarda yetakchi mavqega erishgan. Bu holat Xitoyda raqamli iqtisodiyotning moslashuvchanligi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi hamda keng ichki bozor imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Xitoy Kommunistik Partiyasining 18-Milliy Kongressidan so‘ng raqamli iqtisodiyot davlat rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Hukumat tomonidan raqamli transformatsiya iqtisodiy modernizatsiya, milliy raqobatbardoshlikni oshirish va global resurslar taqsimotida faol ishtirok etish vositasi sifatida e‘tirof etildi. Natijada raqamli infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va platforma iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli choralar amalga oshirildi.

Xitoy “bozorga asoslangan” raqamli rivojlanish modelini shakllantirib, iste‘molchi internetini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berdi. Keng bozor hajmi, yuqori iste‘mol faolligi, rivojlangan logistika va to‘lov tizimlari raqamli iqtisodiyotning tez sur‘atlarda rivojlanishiga zamin yaratdi. 2014-yildan boshlab esa raqamli texnologiyalar sanoat sektoriga keng joriy etilib, sanoat interneti va “aqlli ishlab chiqarish” tizimlari shakllana boshladi.

SDG9 doirasida Xitoy 5G va 6G texnologiyalari, sun‘iy intellekt, blokcheyn, Big Data va bulutli hisoblash infratuzilmasini izchil rivojlantirib bormoqda. Bu jarayon sanoat tarmoqlarining raqamlashtirilishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va global innovatsion zanjirlardagi mavqening mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.


Xitoy hozirda dunyoning eng yirik elektron tijorat bozori hisoblanadi. 2023-yilda elektron savdo hajmi 15,4 trillion yuanga yetdi. Chegara orti elektron savdoning rivojlanishi SDG8 doirasida bandlik va tadbirkorlikni rag‘batlantirmoqda.

Xitoy Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari akademiyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2012–2022-yillarda raqamli iqtisodiyot hajmi 11 trillion yuandan 50,2 trillion yuangacha oshdi.

SDG16 doirasida elektron hukumat, raqamli identifikatsiya, elektron imzo va elektron viza tizimlari joriy etilib, davlat boshqaruvi samaradorligi oshirildi.

To‘lov tizimlarining raqamlashtirilishi natijasida Alipay, WeChat Pay va raqamli yuan (e-CNY) moliyaviy infratuzilmani modernizatsiya qildi.

Sog‘liqni saqlash, ta‘lim va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy tenglikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynamoqda.





Umuman olganda, tahlil natijalari Xitoyda raqamli iqtisodiyot infratuzilma, davlat siyosati, innovatsiyalar va bozor mexanizmlarining uyg'unlashuvi asosida shakllanayotganini ko'rsatadi. Ushbu model mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi yetakchi mavqeini mustahkamlab, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### **Xulosa**

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xitoy Xalq Respublikasida raqamlashtirish jarayoni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining strategik ustuvor yo'nalishiga aylangan. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi aholining turmush tarzini tubdan o'zgartirib, raqamli xizmatlardan foydalanishni kundalik ehtiyoj darajasiga olib chiqdi. Raqamli infratuzilmaning izchil rivojlanishi, 5G va 6G texnologiyalari, sun'iy intellekt, blokcheyn hamda bulutli hisoblash tizimlarining jadal tatbiq etilishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, Xitoyda raqamli iqtisodiyot nafaqat texnologik modernizatsiya bosqichi, balki barqaror rivojlanishning muhim institutsional asosi sifatida shakllanmoqda. Raqamlashtirish strategiyasining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) bilan uyg'unlashuvi iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali rivojlanish modelini yuzaga keltirdi.

Xususan, raqamli sog'liqni saqlash tizimi, "Internet+Healthcare" va "Smart City" loyihalari doirasida joriy etilgan texnologik yechimlar inson kapitalini asrash, tibbiy xizmatlar sifati va qamrovini oshirish hamda hududlararo tafovutlarni qisqartirishda muhim rol o'ynamoqda. Bu jarayonlar ijtimoiy xizmatlarning inklyuzivligini ta'minlash va aholining hayot sifatini yaxshilashga bevosita xizmat qilmoqda.

Shuningdek, elektron tijorat, raqamli to'lov tizimlari va platforma iqtisodiyotining jadal rivojlanishi iqtisodiy faollikni oshirish, tadbirkorlikni rag'batlantirish va yangi bandlik shakllarini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Nusratillayevich va Normo'minovna tadqiqotlari natijalariga ko'ra, elektron savdoning milliy iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, ushbu holat Xitoy tajribasida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda [10].

Umuman olganda, Xitoyning raqamli rivojlanish modeli davlat siyosati, bozor mexanizmlari va innovatsion salohiyatning uyg'unlashuvi asosida shakllangan bo'lib, u



mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi yetakchi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu tajriba rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham raqamli transformatsiyani jadallashtirish, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish borasida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jiang H., Murmann J. P. The rise of China's digital economy: An overview // *Management and Organization Review*. – 2022. – Vol. 18, № 4. – P. 790–802.
2. Zhang W., Zhao S., Wan X., Yao Y. Study on the effect of digital economy on high-quality economic development in China // *PLoS One*. – 2021. – Vol. 16, № 9. – e0257365.
3. García-Herrero A., Xu J. How big is China’s digital economy? // *Bruegel Working Papers*. – 2018. – № 04. – P. 1–28.
4. Wang J., Wang B., Dong K., Dong X. How does the digital economy improve high-quality energy development? The case of China // *Technological Forecasting and Social Change*. – 2022. – Vol. 184. – 121960.
5. Shkvarya L. V., Hailing Y. Digital economy in China: Modern trends // *Institute of Scientific Communications Conference*. – Cham: Springer, 2019. – P. 1209–1216.
6. Song M., Zheng C., Wang J. The role of digital economy in China's sustainable development in a post-pandemic environment // *Journal of Enterprise Information Management*. – 2022. – Vol. 35, № 1. – P. 58–77.
7. Ma X., Feng X., Fu D., Tong J., Ji M. How does the digital economy impact sustainable development? An empirical study from China // *Journal of Cleaner Production*. – 2024. – Vol. 434. – 140079.
8. Pan W., Xie T., Wang Z., Ma L. Digital economy: An innovation driver for total factor productivity // *Journal of Business Research*. – 2022. – Vol. 139. – P. 303–311.
9. Zhang Z., Sun C., Wang J. How can the digital economy promote the integration of rural industries? Taking China as an example // *Agriculture*. – 2023. – Vol. 13, № 10. – 2023.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-4, Issue-01

10. Nusratillayevich O. S., Normo'minovna E. N. Analysis of the impact of e-commerce on the country's economic growth // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – Vol. 3, № 4. – P. 63–70.
11. <https://www.venturousgroup.com/resources/digital-economy-in-china-a-thriving-force/>
12. <https://www.statista.com/statistics/270325/distribution-of-gross-domestic-product-gdp-across-economic-sectors-in-china/?srsltid=AfmBOoqUmyGRcskGa5AeXtgwD1AmD96snNYschbmIrkVy8YoPx3BYywK>
13. <https://www.statista.com/statistics/278487/number-of-mobile-payment-users-in-china/?srsltid=AfmBOop6Qfm2GZgaPGgsBw7MWiisg3-Dx-EBEaj15YUXhf-ymziUukeS>
14. [https://en.wikipedia.org/wiki/China\\_RealDID](https://en.wikipedia.org/wiki/China_RealDID)
15. Digital health governance in China by a whole-of-society approach. Minmin Wang, Xinran Lu, Yeting Du, Zhiqu Liu, Xiangning Li, Xuetong Zhao, Minghui Ren, Jiensheng Wang, Yinzi Jing. 2025

